

Umirov Islombek Furqatovich

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Samarqand filiali o'qituvchisi.

Suyunov Miraziz Vohid o'g'li

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Samarqand filiali talabasi.

Annotatsiya: *Mamlakatimizda ilm-ma'rifatga alohida e'tibor berilishi va bu orqali raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalasi kun tartibiga qo'yilishi bugungi kun zaruratidir. Ze'ro eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va uni jamiyatga tatbiq etish hozirgi*

kunda biz uchun qanchalik ahamiyatli ekanligini anglash, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri ekanligi yashirin iqtisodiyotni qisqartirish dunyo miqyosida jadal tus olganligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: *Raqamli iqtisodiyot va uni rivojlantirish, xufyona iqtisodiyot, texnologiya, korrupsiya, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish.*

Ma'lumki, yashirin iqtisodiyot iqtisodiyotning kuzatilmaydigan yoki yashiriladigan, noqonuniy asosga ega tarkibiy qismidir. Yashirin iqtisodiyot faoliyat – qonunlar, tartiblarni chetlab o'tgan holda soliqlar va majburiy to'lovlarni to'lamasdan, noqonuniy foyda olishga yoki foydani oshirishga yo'naltirilgan harakatlar majmuasidir. Yashirin iqtisodiyot jamiyatda davlat boshqaruvi shakllanishining dastlabki davrlaridan boshlab mavjud bo'lib, hozirgi vaqtga kelib dunyoning barcha mamlakatlari uchun dolzarb muammoga aylangan. Yashirin iqtisodiyotning rivojlanishi miqyoslari har bir mamlakatning rivojlanish darajasi, undagi ijtimoiy-iqtisodiy holatiga va iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va boshqarish xususiyatlariga bog'liqdir. Shuning

uchun har bir mamlakat iqtisodiyotida yashirin iqtisodiyotning oʻrni va roli ham turlichadir. Bugungi kunda yashirin iqtisodiyotning koʻlami rivojlangan mamlakatlarda birmuncha kamroq, rivojlanayotgan, shuningdek, bozor iqtisodiyotiga oʻtish maqsadida chuqur islohotlarni amalga oshirayotgan sobiq ittifoq mamlakatlarda kengdir. Shu boisdan yashirin iqtisodiyotning mohiyati, vujudga kelish va rivojlanish sabablarini, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga taʼsirini, uning koʻlamlarini keskin kamaytirish, unga qarshi kurash masalalarini oʻrganish, tadqiq qilish barcha davlatlar uchun dolzarb ahamiyatga ega. Yashirin iqtisodiy faoliyat koʻrinmas shaklga ega boʻlib, uning turlari doimiy oʻzgaruvchanlik, murakkablashib borish, nazorat bosqichlarni chetlab oʻtish, turli yoʻnalishlar orqali sodir etilishi kabi xususiyatlarni oʻzida mujassamlashtiradi. Bu faoliyatni amalga oshirishda esa uning tarmoqlaridan biri boʻlgan korrupsiyadan foydalanish imkoniyatlari mavjud boʻladi. Korrupsiya va xufiyona iqtisodiyot oʻrtasida chambarchas aloqa mavjud boʻlib, ular maʼmuriy toʻsiqlardan iborat umumiy ildizlarga ega va iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi asosiy kuchlar hisoblanadi. Dunyo global iqtisodiyotining bir qismi boʻlgan Oʻzbekistonda ham iqtisodiyotni erkinlashtirish va biznesni legallashtirish boʻyicha amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramasdan hamon yashirin iqtisodiy sektor yuqoriligicha qolmoqda. Mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni taʼminlash boʻyicha ustuvor vazifalar muhokamasiga bagʻishlangan yigʻilishda ham yashirin iqtisodiyot toʻgʻri ishlayotgan tadbirkorlarga katta toʻsiq ekanligi taʼkidlandi. Oʻzbekistonda yashirin iqtisodiyotdan davlat byudjetiga 30 trln. soʻm, yalpi ichki mahsulotga 135 trln. soʻm zarar yetkazilgan. Deyarli 11 mingta korxonada (41 foiz) hisobotlarida faqat 1 kishini ishchi sifatida koʻrsatgan.



Yashirin iqtisodiyot - oshkora payqab bo‘lmaydigan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash, iste‘mol jarayonlari – iqtisodiy munosabatlar bo‘lib, uning negizida ayrim kishilar yoki kishilar guruhi manfaatlarini yaratadi.

Ilmiy adabiyotlarda yashirin iqtisodiyotning paydo bo‘lishi va rivojlanishida quyidagi: iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy-siyosiy omillarni e‘tirof etiladi.

Bunda **iqtisodiy omillar**: soliq yukining yuqoriligi, mamlakat moliya tizimining inqirozi va uning iqtisodiyotga salbiy ta‘siri, naqd pulning nazoratsiz aylanishi, xususiylashtirish jarayonining nomukammalligi va mamlakatda halol raqobatning mavjud emasligi. **Ijtimoiy omillar** esa: ishsizlikning yuqori darajasi, aholi turmush darajasining pastligi, aholi ishsiz qismining har qanday yo‘l bilan daromad olishga intilishi va yalpi ichki mahsulotning ijtimoiy sohalarda notekis taqsimlanishi orqali namoyon bo‘ladi. **Huquqiy-siyosiy omillar** esa: qonunchilikning nomukammalligi, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishdagi

muammolar, huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalarning noqonuniy va jinoyiy iqtisodiy faoliyatga chek qo'yish borasidagi vakolatlari yetarli emasligi, iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashni muvofiqlashtirish mexanizmining mukammal emasligi kabilarni o'z ichiga oladi.

Ushbu omillarning bosqichma-bosqich bartaraf etilishi har qaysi mamlakatda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga, korrupsiyani bartaraf etishga va mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Xorij tadqiqotchilari iqtisodiyotni bugungi kunda ommalashib borayotgan raqamli transformatsiyalar yordamida taraqqiy ettirish zarurligini ta'kidlab kelishadi. Xuddi korrupsiyani qisqartirishda raqamli texnologiyalarning afzalliklari va samaraliligi isbotlangani kabi, bu vaziyatda ham zamonaviy usullar va jarayonlar yashirin iqtisodiyotning rivojlanishiga ma'lum darajada to'sqinlik qilishi mumkin.

Raqamli iqtisodiyot - iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo'llash asnosida amalga oshirishning yaxlit bir tizimi sifatida qaraladi. Bunda raqamli iqtisodiyot yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari yaratish va ularni kundalik hayotga joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko'chirish demakdir.

Birinchi marta 1995-yilda amerikalik dasturchi Nikolas Negroponte "raqamli iqtisodiyot" atamasini amaliyotga kiritgan bo'lsa, hozirda bu so'zni butun dunyodagi siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar, tadbirkorlar – deyarli barcha insonlar qo'llamoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-aprelda "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Ushbu hujjatga binoan quyidagi vazifalar belgilandi:

- raqamli iqtisodiyotni jadal shakllantirish;
- raqamli infratuzilmani to'liq modernizatsiya qilish va zamonaviy IT-xizmatlaridan barcha hududlarda foydalanish imkoniyatini ta'minlash;
- elektron hukumat tizimini rivojlantirish;
- dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqarish va texnologik maydonchalar yaratish orqali "raqamli tadbirkorlik"ni rivojlantirish;

Raqamli iqtisodiyot insonlarning turmush darajasini sezilarli darajada oshiradi, bu uning asosiy foydasidir. Raqamli iqtisodiyot korrupsiya va „qora iqtisodiyot“ning asosiy kushandasidir. Chunki, raqamlar hamma narsani muhrlaydi, xotirada saqlaydi, kerak paytda ma'lumotlarni tez taqdim etadi. Bunday sharoitda biron ma'lumotni yashirish, yashirin bitimlar tuzish, u yoki bu faoliyat haqida to'liq axborot bermaslikning iloji yo'q, kompyuter hammasini namoyon qilib qo'yadi. Ma'lumotlar ko'pligi va tizimliliigi yolg'on va qing'ir ishlarga yo'l bermaydi, chunki tizimni aldash imkonsiz. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, „Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'ldan borish imkoniyatini beradi“.

Raqamli iqtisodiyot hozirgi kunda bizning kundalik hayotimiz uchun ahamiyatlidir. Uni rivojlantirishda bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha eng istiqbolli va strategik muhim loyihalarni, shuningdek, blokcheyn texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish sohasida chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan „Raqamli ishonch“ jamg'armasi tashkil etildi. Raqamli iqtisodiyotning texnologik va biznes jarayonlari, ishlab chiqarish, logistika va tayyor mahsulotlarning savdosini raqamlashtirish uchun mamlakatimizda zamonaviy infratuzilmaga ega bo'lgan „IT-park“lar tashkil etildi. Kripto-aktiv va blokcheyn texnologiyalar sohasidagi kompaniyalarning erkin faoliyati yo'lga qo'yildi. 2020-yil mamlakatimizda „Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili“deb e'lon qilindi va bu boradagi ishlar endilikda yangi bosqichga ko'tarilib, Prezidentimiz Farmoni bilan mamlakatimizning „Raqamli O'zbekiston – 2030“ strategiyasi va uni amalga oshirish bo'yicha „Yo'l xaritasi“ tasdiqlandi. Biz yashirin iqtisodiyotni qisqartirish uchun raqamli iqtisodiyotni barcha sohalarda qo'llashimiz kerak bo'ladi. Barcha sohalarda raqamli tizimga o'tilishi insonlarga yengillik tug'diradi, ham ish sifati oshadi, asosiysi yashirin iqtisodiyot qisqarishiga zamin yaratiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish imkonsiz emas. Buning uchun puxta o'ylangan, bosqichma-bosqich

amalgama oshiriladigan puxta strategiya kerak. Bunday strategiyaga erishishda albatta birinchi navbatda aholining iqtisodiy savodxonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Agar aholiga xufiyona iqtisodiyotning salbiy asoratlari muntazam ravishda tushuntirib borilsa, bu orqali xufiyona iqtisodiyot ma'lum darajada bartaraf etishga erishilishi mumkin. bugungi kunda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish davr talabiga aylanib bormoqda. Yashirin iqtisodiyot har qanday davlatni ich-ichidan yemiradi desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki yashirin iqtisodiyotda davlat budjetiga hech qanday soliqlar, yig'imglar undirilmaydi, tom ma'noda umuman mavjud bo'lmagandek aniqlash mushkul bo'ladi. Demak, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda eng asosiy dastaklardan biri bo'ladi desak adashmagan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Z.T.Gaibnazarova va Sh.A.Isamuhametov larning Iqtisodiyot nazariyasi kitobi.
2. www.wikipedia.org
3. Shadiyeva, G. M., Urozaliev, E., & Rasulov, J. (2023). PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF THE RAILWAY TRANSPORTATION DIGITALIZATION SYSTEM. *The Journal of Economics, Finance and Innovation*, 374-383.
4. Islombek, U. (2023). TOURIST SERVICES MARKET DEVELOPMENT FACTORS AND TRENDS. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(6), 577-581.
5. Umirov, I., Jasurbek, A., & Iroda, K. (2023). SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDA XIZMAT KO'RSATISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 36, 547-550.